# “O‘zkimyosanoat” AJ va “O‘zavtosanoat” AJ o‘rtasida avtomobil sanoati uchun import kimyoviy mahsulotlarni mahalliylashtirish yuzasidan muzokaralar bo‘lib o‘tdi

// 18 July 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-o-zavtosanoat-aj-o-rtasida-avtomobil-sa




Joriy yilning 17-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish va importni maqbullashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, “O‘zavtosanoat” AJ qoshidagi “Cooperation Lab” — tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish markazida uchrashuv o‘tkazildi.

Unda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov, “O‘zavtosanoat” AJ raisi o‘rinbosari Bahodirjon Rahmonov, shuningdek, har ikki tarmoqqa mansub korxonalarning tegishli rahbar va mutaxassislari ishtirok etdi. Muloqot davomida import kimyoviy mahsulotlarni tahlil qilish va mahalliylashtirish masalalariga e’tibor qaratildi.




Uchrashuv avvalida “O‘zavtosanoat” AJ qoshidagi “Cooperation Lab”da avtomobil sanoatida ishlatiladigan asosiy import kimyoviy mahsulotlar haqida taqdimot o‘tkazildi. Taqdimotda ushbu mahsulotlarning yillik import hajmi, qaysi avtomobilsozlik korxonalarida, qanday texnologik maqsadlar uchun ishlatilishi kabi masalalar yuzasidan aniq ma’lumotlar berildi.

Muzokara davomida “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan ushbu mahsulotlar tarkibi va ularni ishlab chiqarish imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi hamda 2025–2027-yillar uchun innovatsiya, diversifikatsiya va 2026–2030-yillar uchun investitsiya loyihalari asosida mahalliylashtirish imkoniyatlari shakllantirildi. Ilk tahlillar natijasida qator yo‘nalishlar bo‘yicha loyiha takliflari ishlab chiqildi.



Umumiy qiymati 234,4 ming dollarlik 2 ta innovatsion loyiha, umumiy qiymati 5,6 mln dollarlik 5 ta investitsion loyiha hamda umumiy qiymati 10,75 mln dollarlik 7 ta diversifikatsiya loyihasi shular jumlasidandir. Uchrashuv davomida dastlabki ma’lumotlar va hisob-kitoblarga asosan, 2030-yilgacha 14 ta loyiha orqali avtomobil sanoatidagi import hajmini 69 mln dollargacha qisqartirish imkoniyati mavjudligi ta’kidlab o‘tildi.




Uchrashuv yakunida har ikki tarmoq vakillari kimyoviy mahsulotlarni mahalliylashtirish sohasida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishib oldilar.

Shu bilan birga, belgilangan yo‘nalishlarda ilmiy-texnikaviy hamkorlik, tarmoqlararo kooperatsiyani mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo‘yicha bir qator taklif va tashabbuslar bildirildi.




**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**